

UO'K-631.153+631.17+631.155

YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILOVCHI ORGONOMINERAL O'G'ITLAR KOMPLEKSINI OLISH VA ISHLAB CHIQUARISHDA QOLLANISH TEXNOLOGIYASI

Reymova Guljahan – O'zbekistan
Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Qoraqalpog'iston bo'limi 02.00.13-
«Noorganik moddalar va asosidagi
materiallar texnologiyasi» ixtisosligi
bo'yicha 1-bosqish tayanch doktoranti.
reymovaguljahan109@gmail.com

Reimov Nietbay – qishloq xo'jaligi fanlari
doktori, professor. Qoraqalpog'iston qishloq
xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining
professori. niyetbay.reimov@bk.ru

Ízoh –Maqolada yerlarning meliorativ holatini yaxshilovchi yangi organomineral o'g'itlar kompleksini olish va ishlab chiqarishda samaradorligini ishlab chiqarishda aniqlash texnologiyasini aniqlash bo'yicha bajarilayotgan ilmiy ishlar sharxlari haqida so'z etiladi.

Аннотация - В научной статье говорится об обзорах выполняемых научных работ по определению технологии получения и эффективности производства комплекса новых органоминеральных удобрений, улучшающих мелиорацию земель.

Abstract - The article talks about reviews of planned scientific work to determine the technology for obtaining and the efficiency of production of a complex of organomineral fertilizers that improve land reclamation.

Kalit sózlar – Qoraqalpog'iston, yangi, organomineral, o'g'itlar, kompleks, texnologiya, yer, tuproqning sho'rliqi, unumdorlik, neytrallash, hosil, ishlab chiqarish, iqtisodiy samaradorlik.

Ключевые слова – Каракалпакстан, органоминеральные, удобрения, комплекс, технология, засоление почв, плодородие, нейтрализация, урожайность, производство, земля, экономическая эффективность.



Key words - Karakalpakstan, organomineral, fertilizers, complex, technology, land, soil salinization, fertility, neutralization, productivity, economic efficiency.

Kirish. Qoraqalpog'iston Respublikasining past unumdorli, shurlangan yerlarida rejalashtirilgan hosilni olish uchun yangi tarkibdagi kompleksli o'g'itlarni ishlab chiqish ba ishlab chiqarishga joriy etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. SHurlangan tuproq, ekstremal iqlim va suv tanqisligi sharoitida rejalashtirilgan hosilni olish va har xil darajada shurlangan erlarni hám madaniylashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 5853-son Farmoni, 2017 yil 18 yanvardagi PQ-2731-son «2017-2021 yillarda Orol bóyi regionini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida» gi qarorlarga asoslanib, shurlangan yerlarda rejalashtirilgan hosilni olish tuproq unumdorligini saqlash, tiklash va yuqorilatish bóyicha har xil ilmiy natijalar olingan. Yerlardan sifatli, intensiv va Ózbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasini qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-sonli Farmoni asosida shurlangan yerlardan natijali foydalanish va kuchli sho'rlangan yerlarni neytrallashtirish uchun shwr tuproqlarni neytrallaydigan organomineral komplekslarini yaratish texnologiyasini urganish bóyicha ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmaqda[2].

Adabiyotlar tahlili va bajarish metodologiyasi. Dunyo miqyosida tuproq unumdorligini saqlash va tuproqlarning shurlanish jarayoniga qarshi samarali kurashish uchun sifatli o'g'itlarni va qullanish usullarini ishlab chiqish buyicha V.Dokuchaev, P.Kostichev, V.Vil'yams, H.Tayloor, B.Volger, H.Gardner, J.Bussengo, A.Libix, A.Shidel'dorf, K.Binder kabi olimlar tomonidan chuqur urganilgan va ishlab chiqarishga yaxshi tavsiyalar berilgan.

Uzbekistonda Q.Mirzajonov, Z.Tursunxo'jaev, A.Kashkarov, Sh.Nurmatov, R.Tillyaev, B.Xalikov, A.Bolkunov, T.Piroxunov, N.Maxsudov, A.Aytımbetov, J.Toreniyazova, I.Smetov, U.Ismailov, T.Rajabov, G.Xaytbaeva, N.Reimov va boshqa da olimlar tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish, tuproqlarning meliorativ holati va unumdorligi oshirish yullari, yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari va choralari buyicha turli tuproq-iqlim sharoitlarida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Lekin, Qoraqalpog'iston Respublikasining sho'rlangan, unumdorligi past tuproqlari sharoitida tuproqning meliorativ va umumiy holatini yaxshilash uchun yangi organomineral o'g'itlar kompleksini yaratish bo'yicha tadqiqotlar etarli darajada o'rganilmagan hamda ilmiy tavsiyalar berilmagan[1, 4,6].

Tadqiqotlar dala usulida o'rganilib, B.A.Dospexovning «Dala tajribalarini o'tkazish metodikasi» 1985 yilda chop etilgan uslubiy qo'llanmasi, yerlarni rekultivatsiya qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar; tajribalardan olingan ma'lumotlarga statistik ishlov berish B.A.Dospexovning «Metodika polevix i vegetatsionnix opitov s xlopchatnikom» qo'llanmalari asosida amalga oshirildi.

Natijalar. Qoraqalpog'iston Respublikasi tuproqlari boshqa regionlardan uzining tuproqining shurligi, ushbu yer tuprog'ida har qanday usimlik usa bermasligi sababidan shur tuproqning sho'rini neytrallaydigan va o'simlik uchun o'g'it vazifasini bajaradigan organomineral o'g'itlar kompleksini yaratish bo'yicha shirinmiya ildizi, fosfor uni, saprofella, karafos, glaukanitlarning tarkiblari va ularning har xil tarkiblardagi meerlarining tuproq shuri va unumdorligiga tasirini aniqlash uchun olingan organomineral komplekslari tarkibidagi Na_2O ; Al_2O_3 ; SiO_2 ; P_2O_5 ; SO_3 ; Cl ; K_2O ; CaO va Fe_2O_3 elementlarini miqdorlarini urganib organomineral komplekslar tayerlash uchun xom ashyo sifatida qullashga ishlatilishi nazarda tutilmaqda. Buning dastlabki natijalari samarali bulib, tuproqdagi shurni neytrallash xususiyati bor bulgani uchun hozirgi vaqtda shurlangan yerlarga va markaziy yo'llar qoshlariga berilgan shirinmiya ildizi, fosfor uni, saprofellalar o'z samaralarini berishi ilmiy tadqiqotlarda dalillanmaqda.

Muhokama. Mavzu yunalishi bo'yicha Qoraqalpog'istonda Nukus tamani «Samanbay» ovul fuqarolar yig'inidagi «D.S.Feruz» fermer xo'jaligida, Xo'jayli tumanida «Altibay Orazimbetov» fermer xo'jaligida texnika fanlari doktori, professor S.Bawetdinovning ilmiy rahbarligida qishloq xo'jaligi sohasi uchun yangi o'g'it turi sinovdan o'tkazildi. Haqiqatida yam qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishda ekiladigan ekinlarning yangi navlarini va o'g'itlarni kashf etish bugungi kunning ahamiyatli vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Nukus tamani «Samanbay» ovul fuqarolar yig'inidagi «D.S.Feruz» fermer xo'jaligining 1 gektar paxta va 1 gektar kunjut maydonida mahalliy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan organik o'g'it sinovdan o'tkazilib, bu bo'yicha ko'rgazmali seminar tashkil etildi.

Ilmiy seminarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining o'rinbosari R.Saparbayev, qishloq xo'jaligi olimlari, doktorantlar va fermer xo'jaligi rahbarlari ishtirok etdi.

Seminarda S.Bawetdinov rahbarligida yangi yaratilgan, tomonidan mahalliy Glaukonitdan Karafos organik o'g'iti tayyorlanib, ekinlarda sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot natijasida, hosildorlik 1,5 borabar orttirilishiga va namlikning uzoq vaqt saqlab turilishiga erishildi. Shuningdek, yangi o'g'it ekinlar tez rivojlanishiga yordam berib, sifatli va mo'l hosil olindi.

Qoraqalpog'stonda tuproq unumdorligi oldin ham past darajada bo'lganligi,

qurib borayotgan Orol dengizi havzasida dengizning ochilib qolgan qoridan kutarilgan changli-tuzangli tuzlar oralashmasi har yili 15-16 million tonna miqdorida Qoraqalpog'iston Respublikasi yerlarining har bir gektariga 420-650 kg. hisobidan migraciya bo'lib, shur miqdorini oshirayotganligi hozirgi vaqtda hammaga ma'lum.

Ushbu changli-tuzangli tuzlar oralashmasisini tuxtatishning dastlabki poydevori Prezidentimiz SH.M.Mirziyayev tomonidan boshlanib, qurigan Orol dengizi qoriga 2 milliondan kuproq maydonlarga saksaul, qandim, cherkez va boshqa da galofit ekinlar ekilib, parvarishlanmaqda. Ushbu xayrli ishning samarasi Qoraqalpog'istondagi atrof muxit tozaligiga ijobiy tasir ko'rsatmaqda. Respublikadagi tuproqning unumdorligi, shurlanib borishi, atrof muxit tozaligi masalasiga barcha hamyurtlarimiz faol qatnashishi zarur va tuproq unumdorligini saqlash, oshirib borish, dasturiy emas innovacion usullardan foydalanish, tuproqni asrash va shurlangan yerlardan hosil olish bo'yicha har qanday ilmiy ishlarni qo'llab quvvatlashi lozim bo'ladi.

Xulosalar;

1. Tuproq unumdorligini yuqorilatish va sho'rlangan sharoitda qishloq xo'jaligi ekinlaridan rejalashtirilgan hosilni olish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zida zahiralari mavjud mahalliy glaukonit va boshqa da mahalliy zahiralardan tashkil topgan Karafos va boshqa da kompleks ug'itlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Orol buyida joylashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi yerlarida tuproq chirindisining tabiiy juda kamligi, yerlarning shurlanish jarayonining balandligi sababli tuproqning meliorativ xossalariga, unumdorligiga foydali tasiri tegadigan, shurning zararli tasirini kamaytiradigan organomineral komplekslarni qo'llash maqsadga muvofiq.

3. Tuproqning sho'rlanish dinamikasida organomineral o'g'itlardan shirinmiya ildizini maydalab glaukonit bilan 80 ga 20 nisbatda qilib oralashtirib berilganda bahordan may oyigacha xlor ioni miqdori o'zgarishi 0,86 ga va nazorat variantda 1, 08 ga ga teng bo'ldi.

Adabiyotlar ruyxati;

1. Rajabov T. Sug'oriladigan tuproqlarning meliorativ holati va unumdorligi oshirish yullari. «Agroilm» jurnali. №2. 2020. B. 88.
2. Reimov N.B. Improvement of agrotechnology of crops an important finding. International scientific and practical conference Cutting-edge science 2020. august 2020 shawnee, USA ISBN 978-1-64945-249-8. 102-103 pp.
3. Xaytboeva G. Yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari va choralari. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali. Agro ilm ilovasi. 2019. №1. 77-78 betlar.